
GIYOHVANDLIK - ASR VABOSI!

Hozirda insoniyat boshiga turli balolarni solib, oilalarni va jamiyatni tanazzulga olib boradigan illatlardan biri giyohvandlikdir. Giyohvandlik oqibatida minglab norasida go'daklar mayib majruh tug'ilmoqda, oilalarda ajrashishlar ko'paymoqda va dunyoda millonlab odamlar hayotdan bevaqt ko'z yummoqda. Eng afsuslanarli jihati shundaki bu jirkanch narsaga muhtalo bo'lgan kimsalarning tuzalishi juda ham qiyindir!

Farg'ona tumanida yashovchi G'.Sh.Z muqaddam jinoyat kodeksining turli moddalari bilan bir-necha marotaba sudlangan bo'lsada bundan o'ziga to'g'ri xulosa chiqarmasdan jinoyat sodir etish yo'liga kirib, yashash xonadonida ko'p miqdordagi quritilgan holatdagi 269 gramm "Marixuana" giyohvandlik moddasini saqlab kelgan.

Mazkur jinoyat ishi bo'yicha fuqaro G'.Sh.Zga nisbatan JKning 276-moddasi 2-qismi "a,b" bandlari bilan ayb e'lon qilinib, jinoyat ishlari bo'yicha Farg'ona tuman sudiga yuborib jazo muqarrarligi ta'minlangan.

Bugungi kunda davlatimiz tomonidan giyohvandlikka qarshi ko'plab samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Giyohvandlik bilan shug'ullanuvchi kimsalarga nisbatan jazolar qo'llanilayotganligini ommaviy axborot vasitalari orqali bevosita guvohi bo'lmoqdamiz. Bugungi kunda yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashda giyohvandlik kabi salbiy illatlarning oqibati haqida farzandlarimizga tushuntirish ishlarini olib borishimiz hamda kelajak avlodimizni asrab qolish xar birimizning burchimizdir.

Farg'ona tumani IIB huzuridagi Tergov bo'linmasi tergovchisi katta leytenant J.Sh.Avazov

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Instagram](#) | [Youtube](#) | [Telegram](#)

2024-03-27 14:46:18